

---

## Qo'shtepada «Bo'sh ish o'rinlari» mehnat yarmarkasi o'tkazildi (foto)

Qo'shtepa tuman prokurori, 2-sektor rahbari M.Shomurodovning tashabbusi bilan joriy yilning 11 sentyabr kuni sektor hududida "Bo'sh ish o'rinlari" mehnat yarmarkasi o'tkazildi. Yarmarkani o'tkazishda Qo'shtepa tuman hokimligi, tuman bandlikka ko'maklashish markazi, Mahalla va oilani qo'llab quvvatlash bo'limi hamkorlik qildilar.



---

Mehnat yarmarkasida tumandagi 71 dan ortiq korxonalar va muassasalar hamda tadbirkorlik sub'yektlari 243 ta bo'sh ish o'rinlari bilan qatnashdi. Mehnat yarmarkasida 170 dan ortiq ishsiz fuqarolar ishtirok etib, 100 nafarining bandiligi ta'minlandi.



---

Jumladan, tuman prokurori M.Shomurodovning tashabbusi bilan tumandagi 51 ta umumta'lim maktablarining har biriga 1 tadan hamshira yordamchisi vazifasi ajratilib, 51 ta xotin-qizlar mavsumiy ishga qabul qilindi.



2020-09-11 20:12:09